



**ORGANIZATIONAL AND LEGAL TRANSFORMATION OF
THE MANAGEMENT OF THE TRANSPORT COMPLEX OF
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: SYNERGIC AND
INSTITUTIONAL APPROACH**

D. A. Allanazarova

Independent researcher at the Academy of the Ministry of Internal
Affairs of the Republic of Uzbekistan

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20378275>

ARTICLE INFO

Received: 18th May 2026

Accepted: 22nd May 2026

Online: 23rd May 2026

KEYWORDS

Transport complex, state
administration, public
law, private law,
institutional integration,
digitalization, Transport
Code, synergy, logistics.

ABSTRACT

This article analyzes the theoretical, legal foundations and practical aspects of managing the transport complex. The author explores state management in the transport sector as a synergy of public and private legal instruments. The article examines vertical and horizontal management systems, conflicts of competence, and the problems of creating a competitive environment in the context of natural monopolies. Finally, the scientific necessity of unifying national legislation within the framework of the Transport Code is justified.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TRANSPORT MAJMUASINI
BOSHQARISHNING TASHKILY-HUQUQIY TRANSFORMATSIYASI:
SINERGETIK VA INSTITUTSIONAL YONDASHUV**

D.A.Allanazarova

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20378275>

ARTICLE INFO

Received: 18th May 2026

Accepted: 22nd May 2026

Online: 23rd May 2026

KEYWORDS

Transport majmuasi,
davlat boshqaruvi,
ommaviy huquq, xususiy
huquq, institutsional
integratsiya,
raqamlashtirish,
Transport kodeksi,
sinergiya, logistika.

ABSTRACT

Ushbu maqolada transport majmuasini boshqarishning nazariy-huquqiy asoslari va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Muallif transport sohasidagi davlat boshqaruvini ommaviy va xususiy-huquqiy vositalarning sinergiyasi sifatida tadqiq etadi. Maqolada sohadagi vertikal va gorizonatal boshqaruv tizimlari, vakolatlar kollaziyasi hamda tabiiy monopoliyalar sharoitida raqobat muhitini yaratish muammolari ko'rib chiqilgan. Yakunda milliy qonunchilikni Transport kodeksi doirasida unifikatsiya qilish zarurati ilmiy asoslab berilgan.

Zamonaviy globallashuv va transport majmuasi milliy
iqtisodiy integratsiya sharoitida iqtisodiyotning nafaqat infratuzilmaviy



asosi, balki davlatning geosiyosiy barqarorligini ta'minlovchi strategik determinant sifatida namoyon bo'lmoqda. Transport sohasidagi davlat boshqaruvining transformatsion jarayonlari ommaviy va xususiy-huquqiy tartibga solish vositalarining murakkab dixotomiyasini o'zida ifodalab, tizimni ekstensiv modeldan intensiv-innovatsion taraqqiyot bosqichiga o'tkazishni taqozo etadi. Mazkur jarayonda boshqaruv subyektlarining vakolatlar chegarasini aniq belgilash, institutsional integratsiyani ta'minlash va sohaviy qonunchilikdagi disproporsiyalarni bartaraf etish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda fundamental ahamiyat kasb etadi.

Transport majmuasi har qanday davlat iqtisodiyotining qon tomiri sifatida nafaqat ichki va tashqi savdo aloqalarini, balki milliy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi strategik tizim hisoblanadi. Shu boisdan, transport sohasidagi davlat boshqaruvining mohiyati jamiyatning uzluksiz, xavfsiz va ekologik toza harakatlanishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ommaviy-huquqiy va xususiy-huquqiy mexanizmlarning murakkab sinergiyasini o'zida mujassam etadi. Davlat bu o'rinda shunchaki nazorat qiluvchi institut emas, balki murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni muvofiqlashtiruvchi, resurslarni taqsimlovchi va tarmoqning innovatsion rivojlanishi uchun huquqiy kafolatlarni

yaratuvchi faol boshqaruvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu jarayondagi har qanday tarkibiy o'zgarishlar bevosita milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Transport munosabatlarining huquqiy tabiatini tadqiq etishda soha mutaxassislarining, jumladan, huquqshunos olim N.A.Duxnoning ilmiy qarashlari alohida e'tiborga molik bo'lib, unga ko'ra transport huquqi normalarining mazmuni bevosita transport munosabatlarining obyektiv qonuniyatlari bilan belgilanadi¹. Uning fikricha, transportdagi har qanday kamchiliklar yoki nomutanosibliklar huquqiy tartibga solish mexanizmlarining zaifligi yoki subyektiv ma'muriy buyruqbozlikning oqibatidir. Ushbu qarashni ma'qullagan holda qayd etish mumkinki, O'zbekiston sharoitida transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish faqatgina iqtisodiy investitsiyalar bilan emas, balki aynan shunday ilmiy asoslangan, subyektiv irodalardan xoli bo'lgan fundamental huquqiy normalarni yaratish orqali amalga oshirilishi lozim. Davlat boshqaruvini tashkiliy-huquqiy jihatdan takomillashtirmasdan turib, faqat texnologik yangilanishlar orqali ko'zlangan natijaga erishib bo'lmaydi.

Davlat boshqaruvi tizimida ommaviy va xususiy huquq normalarining o'zaro munosabati masalasi ham keskin ilmiy bahslarga sabab bo'lib kelmoqda. Masalan, S.Y.Morozov o'zining tadqiqotlarida

¹ Духно Н.А. Транспортное право и юриспруденция // Публично-правовые проблемы транспортного права: Материалы Пятого международного транспортно-правового

форума / Под ред. А.А.Чеботаревой, В.Е.Чеботарева, Л.М.Малёшиной. – Москва: Изд-во Юридического института РУТ (МИИТ), 2023. – С. 58-67



transport tashuvlari sohasidagi munosabatlarni tashkil etishda fuqarolik-huquqiy vositalar bilan bir qatorda ommaviy-huquqiy ta'sir choralarning zarurligini asoslaydi². Uning fikricha, bozor iqtisodiyoti sharoitida subyektlarning o'z-o'zini tashkil etishi muayyan afzalliklarga ega bo'lsa-da, sinergetik jarayonlarni to'g'ri yo'nalishga burish va ularning chegaralarini belgilash uchun albatta normativ vositalarga ehtiyoj seziladi. Bu yondashuv O'zbekistonning transport siyosatida ham o'z aksini topayotgan bo'lib, davlat aynan erkin bozor raqobatini shakllantirish maqsadida litsenziyalash, tariflarni tartibga solish va xavfsizlik standartlarini belgilash kabi imperativ usullardan foydalanmoqda³.

Transport majmuasini tizimli boshqarish nuqtai nazaridan yondashilganda, A.A.Zohidov tomonidan ilgari surilgan mintaqaviy va milliy transport tizimlarining "vaziyatli modeli" diqqatga sazovordir. Olimning ta'kidlashicha, transport tizimi mustaqil boshqaruvga va o'ziga xos maqsadlarga ega bo'lgan quyi tizimlardan tarkib topgan murakkab, vaqti-vaqti bilan esa tashqi ta'sirlarsiz boshqarib bo'lmaydigan mexanizmdir⁴. Haqiqatan ham, davlat boshqaruvidagi eng muammoli nuqtalardan biri bu – turli transport turlarini yaxlit bir multimodal

tarmoq sifatida muvofiqlashtira oluvchi yagona institutsional markazning yetarli darajada integratsiyalashmaganligi va yagona huquqiy makonning mavjud emasligidir. Bu esa, tizimlararo ziddiyatlarni keltirib chiqaradi.

Boshqaruvning vertikal va gorizontal tuzilmalari o'rtasidagi muvozanat masalasini tahlil qilar ekanmiz, Ye.N.Shuravina va I.V.Kosyakovalarning transport majmuasini boshqarish xususiyatlariga doir tadqiqotlaridagi fikrlariga murojaat qilish o'rinli. Ular sohada qat'iy markazlashtirilgan vertikal boshqaruv tizimi mavjudligini va bu normativ-huquqiy hamda iqtisodiy usullar majmui orqali amalga oshirilishini ko'rsatib o'tadilar⁵. Biroq, ushbu yondashuvga to'liq qo'shib bo'lmaydi. Bugungi global raqamlashtirish va logistik tarmoqlarning zamonaviylashuvi sharoitida o'ta qat'iy vertikal boshqaruv qaror qabul qilish tezligini pasaytiradi va mahalliy darajadagi gorizontal tashabbuslarni bo'g'adi. Shu bois, boshqaruv vakolatlarini maqbul tarzda nomarkazlashtirish bugungi davlat menejmentining asosiy shartlaridan biriga aylanishi kerak.

O'zbekiston Respublikasining zamonaviy transport qonunchiligi aynan shunday vakolatlar taqsimotini aniq belgilashga qaratilgan konseptual

² Морозов С.Ю. Правовые инструменты организации и самоорганизации отношений в сфере автомобильных перевозок: гражданско-правовой аспект // Вестник Пермского университета. Юридические науки. – 2016. – №. 2 (32). – С. 199-207.

³ O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 9-avgustdagi "Transport to'g'risida"gi O'QRQ-706-son Qonuni // Elektron manba: <https://lex.uz/docs/5563039> (murojaat vaqti: 02.05.2026).

⁴ Zohidov A.A. Markaziy Osiyo transport tizimini samarali boshqarish mexanizmini takomillashtirish: Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: STIBOM, 2018. – 67 b.

⁵ Шуравина Е.Н., Косякова И.В. Особенности управления и государственного регулирования транспортного комплекса России // Российское предпринимательство. – 2012. – №. 18. – С. 118-124.



qadamlarni tashlamoqda. Xususan, yangi tahrirda qabul qilingan qonunlarga muvofiq, Vazirlar Mahkamasi davlat siyosatining strategik yo'nalishlarini, investitsiyaviy loyihalarni va umumiy tarif siyosatini belgilasa, Transport vazirligi maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organi sifatida yagona davlat siyosatini, innovatsion rivojlanish va raqamlashtirish jarayonlarini bevosita muvofiqlashtiradi⁶. Bu tizimning o'ziga xos xususiyati shundaki, u eskicha ma'muriy-majburiy boshqaruvdan voz kechib, bozor mexanizmlariga, ilmiy asoslangan auditga va davlat-xususiy sheriklikka tayanadigan tartibga soluvchi (regulyator) modelga o'tishni kafolatlashga urinmoqda.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining transport boshqaruvidagi ishtiroki ham tizimning ajralmas va muhim bo'g'ini hisoblanadi. Sohaga oid qonun hujjatlari tahlili shuni ko'rsatadiki, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga hududiy yo'l harakatini tashkil etish, infratuzilmani saqlash, to'xtab turish joylari reyestrini yuritish va mahalliy dasturlarni tasdiqlash kabi keng vakolatlar berilgan⁷. Ammo, ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, amaliyotda ko'pincha markaziy organlar va mahalliy hokimliklar o'rtasida moliyalashtirish manbalarini va javobgarlik chegaralarini aniqlashda muayyan vakolatlar kolliziyasi yuzaga kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida,

transport siyosatini hududlarda amalga oshirish samaradorligini pasaytiruvchi asosiy huquqiy muammolardan biri sifatida qolmoqda.

Davlat boshqaruvi tartibga solishda huquqiy vositalarning o'rni beqiyos hisoblanadi. Transport sohasida bunday asosiy vositalar sifatida litsenziyalash, sertifikatlashtirish, xabardor qilish tartib-taomillari va davlat nazorati namoyon bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, bu vositalarning haddan tashqari ko'pligi yoki murakkab ma'muriy tuzilishga egaligi tadbirkorlik subyektlari uchun sun'iy to'siqlarni yaratishi mumkinligini inkor etib bo'lmaydi. Shu bois, fikrimizcha ruxsat berish tartib-taomillarini to'liq raqamlashtirish orqali shaffoflikni ta'minlash boshqaruv tizimining eng muhim xususiyatiga aylanishi kerak.

Tarmoqni tartibga solishdagi yana bir o'tkir muammo – bu boshqaruv funksiyalari hamda xo'jalik (tijorat) faoliyatining birlashib ketishi yoki tabiiy monopoliyalarning erkin bozorga ta'siridir. Masalan, temir yo'l transporti tizimini oladigan bo'lsak, vakolatli tashkilotning bir vaqtning o'zida ham tashuvchi, ham infratuzilma operatori, ham tarmoq egasi sifatida namoyon bo'lishi sog'lom raqobat muhitini shakllantirishda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi⁸. Garchi yangi qonunchilikda kamsitishlarsiz kirishni ta'minlash va

⁶ O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 27-noyabrdagi "Temir yo'l transporti to'g'risida"gi O'RB-1006-sonli Qonuni // Elektron manba: <https://lex.uz/uz/docs/7239390> (murojaat vaqti: 02.05.2026).

⁷ O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 2-oktabrdagi "Avtomobil yo'llari to'g'risida"gi O'RB-117-son Qonuni // Elektron manba:

<https://lex.uz/docs/1254490> (murojaat vaqti: 02.05.2026).

⁸ Qarang: O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 noyabrdagi "Temir yo'l transporti to'g'risida"gi O'RB-1006-sonli Qonuni // Elektron manba: <https://lex.uz/uz/docs/7239390> (murojaat vaqti: 02.05.2026).



operatorlarning teng huquqliligi kafolatlangan bo'lsa-da, davlat boshqaruvining asl mohiyati regulyator va tijorat subyektlari o'rtasidagi chegarani qat'iy hamda shaffof belgilashda namoyon bo'lmog'i lozim.

Xulosa qilib aytganda, transport sohasida davlat boshqaruvining mohiyati bugungi kunda ekstensiv rivojlanishdan intensiv-innovatsion taraqqiyotga, ya'ni intellektual transport tizimlari va logistikani raqamlashtirishga o'tish bilan tavsiflanadi. A.S.Kucharov ta'kidlaganidek, transport logistikasini rivojlantirish mamlakatning ustuvor siyosati darajasiga ko'tarilib, chegara-bojxona postlaridagi ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish va axborot almashinuvini yagona onlayn portallar formatiga o'tkazish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda⁹.

Transport majmuasida davlat boshqaruvi tizimining evolyutsion tahlili shuni ko'rsatadiki, sohadagi barqaror

rivojlanishga faqatgina texnik-texnologik yangilanishlar orqali emas, balki tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni tubdan modernizatsiya qilish orqali erishish mumkin. Markaziy boshqaruv organlari va mahalliy hokimiyat tuzilmalari o'rtasidagi vakolatlar kollaziyasini bartaraf etish, boshqaruv funksiyalarini xo'jalik faoliyatidan qat'iy ajratish hamda tabiiy monopoliyalar ta'sirini kamaytirish ustuvor vazifalar sirasiga kiradi. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda ta'kidlash joizki, O'zbekistonning transport salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishning eng samarali yechimi — tarqoq normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtiruvchi va to'g'ridan-too'ri amal qiluvchi yagona Transport kodeksini qabul qilish hisoblanadi. Bu nafaqat huquqiy bo'shliqlarni to'ldiradi, balki raqamli logistika va intellektual boshqaruv tizimlari uchun mustahkam legitim asos yaratadi.

⁹ Kucharov A.S. Transport logistikasini rivojlantirish tendensiyalari // Innovations in

Science and Technologies. – 2024. – Vol. 1. – № 7. – B. 4-15.